



### Toxirova Sevinch Akram qizi

**Annotatsiya:** Jurnalistikaning taraqqiyot bosqichlari deganda, uning, dastlabki kurtaklaridan boshlab, keyingi qadamlari va hozirga kelib, qanday zamonaviy kòrinishga ega bolganligi tushuniladi. Yana ham aniqroq aytganda, jurnalistikadagi axborot yetkazish vazifasi, nimalar orqali amalga oshirilganligini anglatadi. Ushbu maqolada, xabar yetkazish jarayoni, kimlar va nimalar orqali amalga oshirilganini va bugungi kunda zamonaviy jurnalistikaning taraqqiy topganligi organiziladi.


**Kalit sòzlar:** Jarchilar, elchilar, gazeta, radio, televide niye va internet.

#### Kirish

Biz qadimgi va hozirgi davrga nazar tashlaydigan bolsak, insoniyat uchun jurnalistika hayotning chambarchas qismi bòlib kelayotganligiga guvoh bòlamiz. Avvalgi, bir necha yuz yil oldingi davrlarga e'tibor qaratsak, osha vaqtarda ham insonlar uchun axborot tarqatish va uni qabul qilish muhim sanalgan. Shu sabab ilk odamlar ózlarining xabarlarini toshlarga rasm, har xil belgilarni chizish va yoki keyinchalik yozish orqali ham yetkazishgan. Hukum dorliklar davrida esa shoh farmoyishlarini, jarchilar orqali ommaga yetkazgan. Yana bir xabarchi, elchilar ham mavjud bòlishgan, ular saltanat tomonidan, boshqa bir saroyga xabar yetkazib, aloqalar mustahkamligiga hissa qóshgan. Shu tariqa jurnalistikaning taraqqiyot bosqichlari birma bir amalga oshirilgan.

#### Asosiy qism

Har bir davrda, iloji boricha istalgan turdag'i, insonlar uchun kerakli bòlgan narsalar, osonlashtirilib borilaverган. Xuddi shunday, jurnalistikada ham axborotga bòlgan ehtiyojni qondirish maqsadida, turli ixtiolar qilinib borilaverган. Yuqorida ta'kidlab òtilganidek, dastlab, jarchilar va yoki elchilar tomonidan amalga oshirilgan vazifalar, XVII asrga kelib "Gazeta" deb ataluvchi vosita gardaniga yuklatildi. Gazetalar birinchi bosilib chiqila boshlagan vaqtarda, bir oyda bir marta faqat shahar markazlarida, keyin chekka chekka hududlarga ikki yoki uch oyda bir marotaba chiqarilib, yetib boradigan boldi. Ammo vaqtlar òtib, talab ancha oshdi va natijada bir oyda ikki uch marta, haftada bir marta, haftada uch tòrt marta va keyinchalik, har kuni dunyo yuzini kòradigan gazetalar nashrdan chiqa boshladи. Insonlar ma'lumotlar va bòlib òtgan muhim voqeahodisalarni yoritish uchun gazetadan ham tezkorroq vosita radioni XIX asrda ixtiro qilishdi. Bu ixtiro asoschisi Aleksandr Papov hisoblanadi. Endi radioga tòxtaladigan bolsak, radio hech qanday yozuvlar va kòrinishsiz axborot yetkazadigan vosita bòlganligi uchun u orqali axborot yetkazish, anchagina tezkor edi va bu insonlar hayotini yaxshilashga xizmat qilar edi, sababi, mamlakatda xalq uchun qanday imkoniyatlar yoki yangiliklar yaratilayotganini, aynan radio orqali bilishar edi. Keyingi bosqichda jarayon yana ham mukammallahdi, endi tasvir vositasi orqali xabarlar namoyish etilib, insonlar



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ongiga kuchli ta'sir ötkazadigan bòldi, ya'ni XX asr boshlarida televide niye ixtiro qilindi. Ancha yillar mobaynida, televide niye ham öz örnini yòqotmay, takomillashib keldiyu, ammo, tezkorlikda, radio baribir birinchi örinda bòlaverdi. Lekin XXI asrga kelib, yangi sahifa ochildi, bu internet edi. Bugungi kunda, internet insonlar uchun hayotning ajralmas qismiga aylandi. Shu jumladan, jurnalistika sohasida tub burilish nuqtani hosil qildi. Endilikda, ijtimoiy tarmoqlarda, turli xil saytlar öz faoliyatini olib bormoqda, ular kunlik bizni órab turgan olamda, sodir bòlayotgan xabarlardan qisqa fursatlarda xabardor qiladi.

### **Xulosa**

Internet tezkorligi, radioni orqada qoldira oldi deyishimiz mumkin. Ammo tõgri yoki notõgri axborot yetkazayotganligiga kafolat yòq, bu borada mediasavodxonlik, insonlar uchun muhim vosita hisoblanadi. Baribir tezkorlik jihatidan internet, haqiqiy yoki yolgonligi tarafdan gazeta, radio va televide niye gólib keladi. Jurnalistikaning taraqqiyot bosqichlari, özi ichiga olgan, turli xil vositalar, öz davrining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holatda, eng soddasidan, mukammaliga qarab rivojlanib, paydo bòlib boraverdi va bundan keyin ham boraveradi. Inson hayot kechirar ekan, u hamisha axborotni tarqatish va iste'mol qilishga ehtiyoj sezaveradi. Shunday ekan, jurnalistika insonlar hayoti bilan chambarchas bogliq va taraqqiy etib boraveradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <http://infocom.uz/2016/07/07/60-let-televide niyu-uzbekistana>.
2. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. "[Gazette Encyclopædia Britannica](#) 11(11chi nashri) 1911 p. 545